

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13894536>

METAFORA VOSITASIDAGI LEKSIK STILISTIK TA'SIRNI BADIY TARJIMADA QAYTA IFODALASH

Raupova Maftuna G'ulombay qizi

O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti,
Tarjimonlik fakulteti, Badiiy tarjima 2-kurs magistranti

***Annotatsiya:** Ushbu maqola metaforaning vositasidagi leksik stilistik ta'sirni badiiy tarjimada qayta ifodalashga bag'ishlangan. Metafora - adabiy asarda tasvir va ifoda vositasi sifatida keng qo'llaniladigan stilistik figuralardan biridir. Badiiy tarjimada metaforalarni tarjima qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan masalalar ko'rib chiqiladi. Metaforaning lingvistik va madaniy o'ziga xosliklari tarjima jarayonida qanday aks etishi tahlil qilinadi. Badiiy tarjima qilish jarayonida original asarning mazmuni va stilistik xususiyatlarini saqlab qolish muhimligi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, tarjimonning ijodiy yondashuvi va tarjima asarining maqsadli auditoriyaga yetkazishdagi roli haqida fikr yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** metafora, badiiy tasvir, semantic xususiyatlar, badiiy tarjima, lisoniy imkoniyat, o'xshatish etaloni.*

RE-EXPRESSION OF LEXICAL STYLISTIC INFLUENCE THROUGH METAPHOR IN LITERARY TRANSLATION

***Abstract:** This article is devoted to the re-expression of the lexical stylistic effect through metaphor in literary translation. Metaphor is one of the stylistic figures widely used as a means of image and expression in a literary work. In literary translation, the issues that are important in translating metaphors are considered. It is analyzed how the linguistic and cultural peculiarities of the metaphor are reflected in the translation process. The importance of preserving the content and stylistic features of the original work is emphasized in the process of artistic translation. At the same time, the translator's creative approach and the role of the translated work in delivering it to the target audience are discussed.*

***Keywords:** metaphor, artistic image, semantic features, artistic translation, linguistic possibility, simile standard.*

РЕЭКСПРЕССИЯ ЛЕКСИЧЕСКОГО СТИЛИСТИЧЕСКОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ ЧЕРЕЗ МЕТАФОРУ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПЕРЕВОДЕ

***Аннотация:** Данная статья посвящена перевыражению лексико-стилистического эффекта посредством метафоры в художественном переводе. Метафора – одна из стилистических фигур, широко используемых как средство изображения и выразительности в литературном произведении. В художественном переводе рассматриваются вопросы, важные при переводе метафор. Анализируется, как лингвокультурные особенности метафоры отражаются в процессе перевода. В процессе художественного перевода подчеркивается важность сохранения содержания и стилистических особенностей оригинального произведения. При этом обсуждается творческий подход переводчика и роль переведенного произведения в донесении его до целевой аудитории.*

***Ключевые слова:** метафора, художественный образ, смысловые особенности, художественный перевод, лингвистическая возможность, стандарт сравнения.*

KIRISH

Ingliz va o‘zbek tillaridagi metaforalarning o‘rganilishi katta ahamiyat kasb etadigan yo‘nalishlardan biri bo‘lib, bugungi kunda metaforalarni qiyosiy tilshunoslikda har tomonlama o‘rganish orqali tilshunoslikning yangi qirralari namoyon bo‘lib bormoqda. Mavzuning eng dolzarb jihatlaridan biri bir tomondan xorijiy tillarga qiziqishning o‘sishi bo‘lsa, ikkinchi tomondan ingliz va o‘zbek tillaridagi metaforalarning semantik xususiyatlarini har ikkala tilda chog‘ishtirib o‘rganish va ularni o‘xshash va farqli tomonlarini umumlashtirishdir. Ayniqsa, o‘zbek va ingliz metaforalarini chog‘ishtirib o‘rganish asnosida har ikkala tildagi o‘zaro o‘xshash va farqli tomonlarini ko‘rsatib beradi. Mazkur masalani o‘rganish uchun ingliz va o‘zbek xalqining madaniyatini ifodalovchi manbalarda keltirilgan metaforalarni qiyoslash, milliy mentalitet va uni ifodalovchi xususiyatlarini tahlil etish lozim.

METODLAR VA ADABIYOTLAR SHARHI

Maqolada asosiy manba sifatida Samuel R. Levinning “The Semantics of Metaphor (Metafora semantikasi)” kitobidan foydalanilgan. Unda ingliz tilida metafora tushunchasi keng yoritib berilgan va chuqur tadqiq etilgan. Ushbu kitobda metaforaning shakllanishiga sabab bo‘luvchi gramatik omillar va metaforaning gramatik, uslubiy va semantik xususiyatlari tasvirlangan. [3:90] Arora, S.ning “The Perception of Proverbiality” asaridan ingliz metaforalarida badiiy san’atlarning ishlatilish o‘rinlari keltirilgan. [1:244] E. Kassirer metaforaga quyidagicha ta’rif beradi: "Metafora bir tasavvur nomini unga mutanosib qandaydir belgiga ega bo‘lgan yoki u bilan qandaydir bilvosita "analogiya"larni nazarda tutuvchi boshqa soha, boshqa tasavvurga ko‘chirish deb tasavvur qilish mumkin". [2:84] Ushbu manbalardan foydalanilgan holda, metaforalarning leksik-grammatik, leksik-semantik tabiati va stilistik xususiyatlarini, ularning paydo bo‘lish manbalari va shakllanish xususiyatlari atroflicha ochib berilgan.

NATIJALAR

Ushbu tadqiqot madaniyatlararo muloqot asoslari, kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik va qiyosiy tilshunoslikdagi metod hamda nazariyalarga asoslandi. Tadqiqot natijalari umumiy tilshunoslik, til va jamiyat, til va tafakkurning o‘zaro ta’siri, kognitiv bilish jarayonida tilning o‘rni va ahamiyati kabi muammolarni ishlab chiqishda nazariy va amaliy ahamiyatga egadir. Metaforik ma’no nutqiy hosila bo‘lsa-da, u lisoniy imkoniyat va qonuniyatlarga tayanadi. Lisoniy imkoniyatlar nutqiy hodisalar uchun sabab, mohiyat, umumiylik vazifasini o‘taydi. Sababsiz natija, mohiyatsiz hodisa, umumiyliksiz xususiylik bo‘lmaganidek, lisoniy asossiz nutqiy hodisa ham bo‘lmaydi. Nolingvistik qarashlar masala mohiyatini ochishdan ko‘ra ko‘proq qorong‘ilashtiradi va ta’kidlash mumkinki, ularning mag‘lubiyati ham aynan ularning nolingvistikligi bilan belgilanadi. Badiiy tarjima qilish jarayonida original asarning mazmuni va stilistik xususiyatlarini saqlab qolish muhim. Tarjimonning ijodiy yondashuvi nafaqat

asarning mazmunini, balki uning stilistik xususiyatlarini ham aniq yetkazishga yordam beradi. Shu sababli, tarjimon o'zining madaniy bilimlari va ijodiy mahoratini ishga solib, original asarning o'ziga xosligini saqlab qolishga harakat qilishi zarur. Maqsadli auditoriyaga asarning estetik va emotsional ta'sirini yetkazish uchun tarjimonning ijodiy yondashuvi muhim rol o'ynaydi.

MUHOKAMA

Ingliz va o'zbek tillaridagi mavjud o'xshatishlarni qiyosiy tahlil qilganda, o'xshatish etaloni sifatida ko'pincha hayvon yoki jonivorlarni bildiruvchi so'zlardan foydalanilganligini ko'rish mumkin. Masalan, o'zbek tilida "qo'yday yuvosh", "musichaday beozor" o'xshatish etalonlari mavjud bo'lib, bu o'xshatishlar orqali o'zbek mentalitetiga xos jihat, ya'ni qadimdan qo'yning yuvosh hayvon, musichaning beozor, zararsiz qush ekanligi ifodalanmoqda. Ingliz tilida esa beozorlik timsoli sifatida ko'pincha kabutar tasvirlanadi: "As harmless as a dove".

Ingliz va o'zbek tillarida sinonimlik xosil qiladigan quyidagi o'xshatishlarni ham xuddi shunday qiyosiy tahlil qilish mumkin: "As hungry as a bear" iborasi o'zbek tilidagi "Bo'riday och" o'xshatish etaloniga teng keladi. "Och" sozining bo'ri bilan birga ishlatilishi o'zbek lingvokulturologiyasiga xos bo'lib, ozbek xalq ertaklaridagi och bo'ri ko'z oldimizga keladi. Jumladan, mif, ertak, doston va badiiy asar qahramonlari ishtirok etgan muayyan o'xshatishlar mavjud bolib, ular orqali o'sha xalq milliy madaniyatini chuqur anglab yetish mumkin. Masalan, o'zbek tilida "baquvvat, pahlavon, gavdali, juda ham kuchli, bahodir" ma'nosida ishlatiladigan "Alpomishday" o'xshatish etaloni ingliz tilidagi "jasur va botir" ma'nosida qo'llanuvchi "as brave as Robin Hood" o'xshatish birligi bilan sinonimlik xosil qiladi. [4:75]

Ingliz va o'zbek tillarida uchraydigan o'xshatishlar orasida leksik component tuzilmasi jihatidan bir xil yoki turli xil bo'lgan turlarni uchratish mumkin. Masalan, ingliz tilidagi "As red as a cherry" iborasida ishlatilayotgan cherry (gilos) so'zi o'zbek lingvokulturologiyasiga ham xos bo'lib, qiz bolaning lablarini tasvirlashda

foydalaniladi. Shuningdek, ingliz tilidagi “as sly as a fox” iborasi o‘zbek tilidagi “tulkiday ayyor” o‘xshatishiga sinonim bo‘ladi. Bu sinonimlikda ham leksik component tuzilmasi jihatidan bir xillikni kuzatish mumkin.

XULOSA

Metaforalar xalqlarning milliy mentaliteti, dunyoqarashi va ularning yashash tarzini ifodalashda faol qo‘llanadigan unsur hamda ular bilan bog‘liq milliy, ijtimoiy, axloqiy qarashlarini ifodalovchi birliklardir. Ingliz va o‘zbek tillaridagi metaforalar semantik tahlili ikki xalqining betakror milliy, ma’naviy, an’alarining lisoniy va madaniy o‘ziga xosligini tadrijiy takomilini va yashovchanligini o‘rganishda muhim ahamiyatga molikdir. Agar kelib chiqishini tekshiradigan bo‘lsak, shaksiz, aniqlash mumkin bo‘ladiki, u yoki bu metafora u yoki bu o‘xshatishdan rivojlangan bo‘ladi. Biroq shunday asosda xuddi qarama qarshi xulosa ham chiqarish mumkin - ko‘plab o‘xshatishlar metaforadan kelib chiqqan. Shuning uchun ayrim olimlar metafora va o‘xshatish orasidagi farqqa alohida e’tibor berganlar. O‘xshatishda esa o‘xshashlik o‘z mavqeini saqlab qoladi. Agar an’anaviy tushunishda "metafora" termini ostida bir so‘zning boshqasi bilan almashtirilishi nazarda tutilgan bo‘lsa, bugun aksariyat tadqiqotchilar metafora tom ma’noda fundamental bilish faolyatining namoyon bo‘lishi ekanligini e’tirof etadilar. Ko‘rinib turganiday, metafora ko‘p qirrali va benihoya murakkab hodisa bo‘lganligi uchun ham uning talqinlarida farqli jihatlar ancha-muncha.

REFERENCES

1. Arora S. "The Perception of Proverbiality", *De Proverbio*, 1984, 244p.
2. Ernst Cassirer, *Language and Myth*, translated by Susanne K. Langer, New York, Harper & Brothers, 1946, Dover Publications, 1953, 83-99.
3. Samuel R. Levin, "The Semantics of Metaphor" *The Johns Hopkins University Press*, 1977, 89-103.
4. Тоҳиров З. Метафора лексема-семемасининг прагматик семаси. // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1983. - № 1. – Б. 74-77.